

O‘QUVCHILARDA O‘QUV MOTVATSIYALARINI SHAKLLANISHIGA TA’SIR ETUVCHI OMILLAR

¹Djumanov Sherali Zakirovich, katta o‘qituvchi

²Sauronova Sabrina Elmurod qizi

O‘zMU Jizzax filiali, 2-kurs talabasi

sherali.zhumanov.83@bk.ru

Annotatsiya: Mazkur maqolada ta’lim jarayonida o‘quvchilar o‘quv motivatsiyalarini shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarning ro‘li va ahamiyati yoritilgan.

Maqoladan bo‘lajak mutaxassislarning ta’lim jarayonida o‘quv motivatsiyalarini shakllantirish muammosi bilan shug‘ullanuvchilar foydalanishi mumkin.

Kalit so‘zlar: qiziqish, munosabat, o‘z-o‘zini anglash, oila va mahalla hamkorligi, o‘quv motivatsiyasi, o‘smirlik davri, xulq-atvor, gumanistik munosabat, pedagogik odobi.

O‘quvchi yuqori bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish uchun ta’lim-tarbiya faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan tadbirlar majmuasiga o‘quvchilarning motivlari sohasini o‘rganish masalalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishida oilaning o‘rnini alohida e’tiborga olish bilan bir qatorda, maktab ta’limiga ilg‘or xalqaro tajribalar asosida ishlab chiqilgan Milliy o‘quv dasturini to‘laqonli joriy etish hamda mahalliy va xorijiy mualliflar tomonidan yaratilgan zamonaviy darsliklarni amaliyotga kiritishni ham unutmazlik lozim.

Respublikamizda maktab ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, Respublikamizda yigit va qizlar o‘quv-tarbiya muassasalarida tarbiyaviy-axloqiy ishlarni takomillashtirishning me’yoriy asoslari yaratildi. Jumladan, “2022 - 2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi № PF-134-son Farmonida o‘quvchilar tarbiyasida ota-onalar, mahallalar va ta’lim muassasalari hamkorligini tizimli tashkil borasidagi burch va mas’uliyatini oshirish ustuvor vazifalar sifatida belgilab berilgan.¹ Natijada o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha yagona elektron platforma yaratish hamda har bir 5-11-sinf o‘quvchisi uchun elektron “Ish daftari”ni joriy etish. Xalq ta’limi tizimida o‘quvchilarning qiziqishi va qobiliyatlarini aniqlash bo‘yicha yagona elektron platformani yaratish imkoniyatlar yaratildi. O‘zbekistonda ta’lim tizimini isloh qilish va takomillashtirishga qaratilgan qator hujjatlarda ta’lim jarayonini insonparvarlashtirish va demokratlashtirish, uni shaxsga - ta’lim jarayonining asosiy subyektlaridan biriga qaratish alohida ta’kidlab o‘tiladi. Shu munosabat bilan ta’lim tizimini isloh qilishning hozirgi bosqichida o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi munosabatlarning

¹ “2022 - 2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi № PF-134-son Farmoni

adekvat modelini qurish uchun o'quvchi individual xususiyatlarini tahlil etishga yanada sinchkovlik bilan yondashish talab etiladi.

Ta'limning maqsadi mustaqil fikrlaydigan, ijodiy faoliyat yuritadigan yoshlarni tarbiyalashdir. Chunki ta'lim yoshlar ma'naviyatiga yaratuvchanlik baxsh etishi, o'sib kelayotgan yosh avlodning barcha orzu-umidlari zamonaviy ta'lim-tarbiya orqali ro'yobga chiqishi aniq va ravshandir. Maktab, oila va mahalla hamkorligi talim-tarbiya masalalarining muhim omillaridan biridir. O'quvchilarda davrida o'quv motivatsiyasi shakllanishida oilani rolini o'rganish ta'lim samaradorligini aniqlab beruvchi omillardan biri hisoblanadi.

Motiv va motivatsiya muammolari jahon psixologlari L.S.Vigotskiy, B.F.Lomov, S.L.Rubinshteyn, V.V.Davidov, D.B.Elkonin, A.N.Leontev, B.G.Ananov, L.I.Bojovich, A.V.Zaporojets, V.G.Aseev, P.Ya.Galperin, A.K.Markova, N.E.Efimova, M.V.Matyuxina, V.I.Kovalyov, M.Sh.Magomed-Eminov, D.N.Uznadze va boshqa psixologlar asarlarida o'rganilgan.

Motiv va motivatsiya muammolarni o'zbek psixologlardan M.G.Davletshin, E.G'.G'oziyev, G'.B.Shoumarov, V.A.Tokareva R.I.Sunnatova, A.A.Fayzullayev, A.K.Saitova, E.Z.Usmonova, M.Rasulova, F.I.Haydarov kabi psixolog olimlar o'rganib, bu sohada o'ziga xos yo'nalish yaratishga muvaffaq bo'lishdi.

Olimlarning fikricha, o'quvchilarda o'qish motivlarini shakllanishiga qadriyatlar, oilaviy an'analar, maktab talimidagi ijobiy pedagogik munosabatlar va o'quvchilarni o'z-o'zini anglash kabi omillar o'quv motivatsiyasining shakllanishiga olib keladi.

Jumladan, Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'smirlik davridagi maqsadni belgilash quyidagilar bilan tavsiflanadi: o'smir o'z xatti-harakatlarini o'qituvchi qo'ygan maqsadga bo'ysundiradi, mustaqil ravishda maqsadlar qo'yishi, ya'ni o'z ishini rejalashtirishi mumkin. Maqsadni o'z-o'zidan belgilash ilmiy ishlarga ham, darsdan tashqari mashg'ulotlarga ham tegishli. O'smir o'zi uchun maqsadlarning mustaqil ierarxiyasini tuzishi, ularga erishish ketma-ketligini aniqlay oladi, ta'lim faoliyatining katta bloklarini rejalashtirishdan zavqlana oladi.

O'smirlar maqsadga erishishda va bu yo'lda qiyinchiliklarni engishda qat'iyat ko'rsatadilar. Tanlangan qiziqishning rivojlanishi o'smirlarning xatti-harakatlarini maqsadli qiladi. O'smirlik davrining oxiriga kelib, kelajak bilan bog'liq istiqbolli maqsadlarni belgilash qobiliyati rivojlanadi va qandaydir motivning barqaror hukmronligi kuzatilishi mumkin.

Zamonaviy o'smir o'zining shaxsiy xususiyatlarini boyitishda uning boshqalar uchun foydali bo'lish istiqbolini ko'radi. Ammo o'smirning intilishlari, o'z qobiliyatlarini anglashi, o'zini shaxs sifatida ko'rsatishi va kattalarning xohish-irodasiga bog'liq bo'lgan maktab pozitsiyasi o'rtasidagi tafovut, o'z-o'zini hurmat qilish inqirozining chuqurlashishiga olib keladi. Kattalarning bahosini rad etish, ularning to'g'riligidan qat'i nazar, aniq namoyon bo'ladi. Sababi, birinchi navbatda, o'smirning jamoatchilik e'tirofiga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun tegishli shart-sharoitlar yo'qligida. Bu, o'z-o'zini aniqlashning sun'iy kechikishiga aylanadi, ayniqsa, o'smirlarning tengdoshlari bilan samimiy-shaxsiy va o'z-o'zidan guruhli muloqotga intilishi, har xil turdagi o'smirlar kompaniyalari, norasmiy guruhlar paydo bo'lishida namoyon bo'ladi[5]. O'z-o'zidan guruhli muloqot

jarayonida tajovuzkorlik, shafqatsizlik, bezovtalanish, izolyatsiya va boshqalar barqaror xarakterga ega bo'ladi.

O'qituvchi nafaqat o'qitish motivlarini bilishi, balki o'quvchilarni tushunish va ularning motivatsion sohasiga ta'sir qilish uchun bu bilimlarni qo'llay olishi kerak. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlarning o'qishga bo'lgan munosabati birinchi navbatda o'qituvchining ish sifati va uning o'quvchilarga bo'lgan munosabati bilan bog'liq.

O'quvchilar o'quv faoliyatining motivlari turli-tuman ko'rinishga egadir, chunonchi:

- “a'lochi” yoki “yaxshi” baho olish;
- ota-onasini o'zi erishgan yutuqlari bilan xursand qilish;
- o'qituvchining maqtoviga sazovor bo'lish;
- qo'yilgan topshiriq (masala) unda qiziqish uyg'otganligi;
- qobiliyatini ro'kach qilish;
- tengdoshlarini oldida obro'ga ega bo'lish;
- o'zini past his qilgan sohasini o'rnini to'ldirish;
- o'quv predmetining ijtimoiy va amaliy ahamitga molikligi;
- kasbiy xislatlarni shakllantirishdagi o'rni;
- topshiriqni echishga ra'yi yo'q, lekin uni bajarishdan boshqa iloji yo'qligi va boshqalar.

Aytish joyizki, har bir yoshda o'quvchilarning yosh xususiyati ularning dominant motivlarini belgilab beradi. Jumladan o'smirlar o'quv faoliyatining ijtimoiy motivlari ularning boshqa odamlar bilan muomalaga kirishish ehtiyoji bilan o'zviy bog'liq bo'lib, ularni baholash, quvvatlash, tengdoshlari jamoasida muayyan joy egallash singari talablarda o'z aksini topadi[4]. Mazkur motivlar o'quv faoliyatining mohiyati bilan bog'liq bo'lmay, balki unga yondosh yordamchi faktorlarni anglatadi. Ammo ushbu motivlar o'smir o'qishiga jiddiy turtki vazifasini bajaradi.

O'smirlar xatti-harakatining yetakchi motivi ularni o'z tengdoshlari jamoasida muhim joy egallash ehtiyoji hisoblanib, ular bilan muomala qilish ham alohida ahamiyat kasb etadi. Agarda kichik maktab o'quvchisi sinfda o'zini qisilganday noxush his qilsa ham bunday holatga ko'nikib ketadi, ammo o'smir xoh xulq-atvor qoidalariga rioya qilib, goho unga zid bo'lgan vositalar yordamida o'z ehtiyojini qondirishga qaror qiladi.

Ijtimoiy turmush va faoliyatning ko'rsatishiga qaraganda, har qaysi shaxsda o'z qadr-qiyamatini his etish tuyg'usini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Ta'lim-tarbiya jarayonida ota-ona va o'qituvchining o'quvchilarga nisbatan gumanistik munosabati va pedagogik odobi (takti) muhim ahamiyat kasb etadi, shuning bilan birga o'z xatti-harakati natijasini oldindan ko'ra bilish ko'nikmasi bu borada muhim to'rtki vazifasini bajaradi. Pedagogik odob qoidalari va muomala qilish, ta'sir o'tkazish mexanizmlariga rioya qilish shaxslararo munosabatni barqarorlashtiradi[2].

Umumiy xulosa qiladigan bo‘lsak o‘qituvchi va ota-onalarning farzanlariga bo‘lgan munosabati ularning o‘qishga bo‘lgan motivatsiyasi va bilimlarni egallashdagi harakatlarida o‘z ta’siriga ega deb aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. “2022 - 2026-yillarda Xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dasturni tasdiqlash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 11 maydagi № PF-134-son Farmoni
2. Zakirovich, Djumanov Sherali. "TALABALARDA KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARNI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI." International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research (2022): 543-545.
3. Джуманов, Ш., & Холикулова, С. (2022). Талабаларда коммуникатив қобилиятларни шакллантириш имкониятлари. Современные инновационные исследования актуальные проблемы и развитие тенденции: решения и перспективы, 1(1), 513-515.
4. Otamuratov, R.U. (2022). O‘SMIRLARDAGI KASBIY O‘ZLIGINI ANGLASHIDAGI XAVOTIRLANISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Fanlararo tadqiqotlar uchun Markaziy Osiyo tadqiqot jurnali (CARJIS), (Maxsussoni 1), 49-54.
5. Yo‘ldoshyev, S., & Bosimova, M. (2023). ZAMONAVIY PSIXOLOGIYANING PEDAGOGIKA BILAN UZVIY BOG‘LIQLIGI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).